# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSIDAN O'QUVCHILARGA PORTRET CHIZISHNI O'RGATISH

**Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi**
*Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti" "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*
rizayevaqomarun0@gmail.com

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tasviriy san'at darsidan o'quvchilarga portret chizishni bosqichma-bosqich o'rgatish va o'quvchilarga portretda yuz mimikasini ifodalash va qalam tasvirda turli kayfiyatdagi odamlarning yuzini chizishdagi kerakli ma'lumotlar haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Portret, tasviriy san'at, ijod, janr, avtoportret, mimika, rassom*

**Abstract**: *This article describes the step-by-step teaching of portrait drawing to students from a fine art class, and the necessary information for students to express facial expressions in portraits and draw faces of people in different moods in pencil*

**Key words**: *Portrait, fine art, creativity, genre, self-portrait, mimicry, artist*

**Аннотация**: *В данной статье описано поэтапное обучение рисованию портрета учащихся художественного класса, а также представлена необходимая информация для учащихся, позволяющих выражать мимику на портретах и рисовать карандашом лица людей в разном настроении.*

**Ключевые слова**: *Портрет, изобразительное искусство, творчество, жанр, автопортрет, мимика, художник.*

Portret-inson obrazini tasviriy san'atda yaratishda eng murakkab janr hisoblanadi. Ma'lumki har bir davrning usta rassomlari bo'lgan. Masalan hammaga mashxur bo'lgan rassom Leonardo da vinchining "Monalisa" asari butunjaxon tanigan noyob asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar Fransiyaning Luvr muzeyida saqlanadi. Hozirgi kunda esa u asarning aniq bir qiymati baxolanmagan. Deyarli ko'p mashxur rassomlaring hammasi o'zining avtoportretini chizganlar. Bunda rassomning ijod qobiliyati yanada shakllanadi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga tasviriy san'at darsidan portret chizishni o'rgatish muhum. Portret chizish o'quvchilarga nafaqat inson yuzini chizishni o'rgatadi, balki ular orqali chuqurroq san'at tamoyillarini ham tushunib oladilar.Ular yuz proporsiyalari simmetriya va aniqlik kabi muhum tushunchalarni o'rganib boradilar. O'quvchilar inson yuzidagi ifoda orqali qanday qilib kayfiyat va shaxsiyatni chizishda aks ettirish mumkinligini tushunadilar. Maktab o'quvchilari uchun portret chizishni o'rganish oddiy va qiziqarli bo'lishi kerak. Chunki ularni hayolida bu ish murakkab va qiyin degan fikr o'rnashib oladi.

Buning uchun esa o’quvchilarga portret chizishda rassomlarning asarlaridan namunalar ko’rsatib ular haqida ko’proq ma’lumotlar o’rgatib borish kerak va ko’proq o’qituvchining o’zi o’quvchilarga chizib berib ko’rsatish kerak. Chunki bolalar ko’zi bilan ko’rib organsa esida qoladi va o’zi ham chizib ko’rgisi keladi.

Buning uchun esa ushbu mashg’ulotni turli xil qiziqarli metodlar bilan tushuntirib dars olib borish kerak. Portret chizishning birinchi bosqichi oddiy shakllardan boshlanadi.




O'quvchilarga yuzni oval shaklida chizish, keyin ko'zlar, burun va og'iz uchun yordamchi chiziqlar tortish o'rgatiladi. Bu oddiy shakllar portretning tuzilmasini to'g'ri tashkil qilishda yordam beradi. Keyingi bosqichda o'quvchilar yuz detallari ustida ishlashni boshlaydilar. Ko'zlar, burun va og'izni chizishda ifoda va qiyofani aks ettirish muhim. O'qituvchi o'quvchilarga insonning ifodasini aniqlashda qanday soyalar va chiziqlarni ishlatishni tushuntirishi kerak. Bu qadam o'quvchilarning yuz ifodalarini ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida portret chizishni o'rgatish o'quvchilarning ijodiy va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu san'at darsi nafaqat texnik bilimlarni, balki inson qiyofasi orqali ichki his-tuyg'ularni ifodalash imkoniyatini beradi. To'g'ri yondashuv va ijodiy metodlar orqali o'quvchilar san'atning chuqur jihatlarini o'rganib, o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradilar. Shu sababli, portret chizish san'atini o'rganish umumta'lim maktablarida katta tarbiya va ta'limiy ahamiyatga ega darslardan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov, M. "Tasviriy san'at asoslari." Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2010.
2. Ismailov, A. "Bolalar ijodini rivojlantirishda tasviriy san'atning roli." O‘qituvchi nashriyoti, 2012.
3. Nazarov, K. "Portret chizish texnikasi va usullari." Samarqand, 2015.
4. "Tasviriy san'at o'qituvchisi uchun metodik qo'llanma." Respublika metodik markazi, 2018.